



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARDA MOLİYALASHTIRISH MODELI VA UNDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nazarova Adiba Salimbayevna

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistratura tinglovchisi.
nazarovaadiba1987@gmail.com

Annotasiya:

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish tizimi va uning samaradorligini oshirish muammolari tahlil qilinadi. Ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida MTT faoliyatini barqaror moliyalashtirishni ta'minlovchi omillar, resurslarni boshqarish usullari hamda ularning ta'lim sifatiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba, iqtisodiy indikatorlar va moliyaviy koeffitsientlar asosida moliyalashtirish samaradorligini baholash mexanizmlari taklif etiladi. Maqolada iqtisodiy modellash, prognozlash hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining qo'llanilishi orqali MTT infratuzilmasini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasini moliyaviy jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, moliyalashtirish samaradorligi, ta'lim infratuzilmasi, iqtisodiy indikatorlar, davlat-xususiy sheriklik, budget siyosati, ta'limga investitsiya, moliyaviy barqarorlik.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi har qanday jamiyatda ta'limning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishi shakllanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali moliyalashtirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mamlakat kelajagini barpo etishda strategik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu sohani moliyalashtirishda turli modellardan foydalanilmoqda, ular ichki va tashqi omillarga ko'ra farqlanadi. Mazkur ma'ruzada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

moliyalashtirish modeli, ularning afzalliklari, kamchiliklari va amaliyotdagi o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish modelining umumiy tushunchasi bu moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida taqsimlash mexanizmini anglatadi. Ushbu model quyidagi asosiy elementlardan iborat:

Moliyaviy manbalar davlat budjeti, mahalliy byudjet, xususiy sektor, grantlar.

ASOSIY TADQIQOT

Moliyaviy oqimlarni boshqarish usullari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish ta'lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni rag'batlantirish va infratuzilmani rivojlantirishning muhim omilidir. Moliyaviy oqimni boshqarish — bu moliyaviy manbalarni shakllantirish, taqsimlash, nazorat qilish va tahlil qilishning uzluksiz va tizimli jarayonidir. Bugungi kunda ushbu faoliyatni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilish maktabgacha ta'lim tashkilotlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy oqim tushunchasi va uning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rni tashkilot ichidagi va tashqarisidagi pul mablag'larining harakati bo'lib, u moliyaviy barqarorlik va rentabellikni belgilovchi asosiy omildir. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy oqim quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi davlat byudjetidan tushumlar, ota-onalar to'lovlari, xususiy homiylik, grantlar va boshqa qo'shimcha mablag'lar, mablag'larning maqsadli sarflanishi, ish haqi, oziq-ovqat, kommunal to'lovlar, o'quv-uslubiy materiallar xaridi va h.k.

Moliyaviy oqimni to'g'ri boshqarish orqali resurslardan oqilona foydalanish, shaffoflik va samaradorlikka erishish mumkin.

Moliyaviy oqimni boshqarishning asosiy usullari


MTTlarda moliyaviy oqimni boshqarishda quyidagi usullar keng qo'llaniladi: Rejalashtirish va byudjetlashtirish. Ushbu usullarda moliyaviy xarajatlar va daromadlar yil boshidan aniq rejalashtiriladi. Rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Daromad manbalarini aniqlash, xarajatlar smetasini tuzish.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025



Bu grafikda 2020-yildan 2024-yilgacha MTTlar uchun yillik byudjet o'sishi tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki har yili barqaror o'sish kuzatilmoqda. 2020-yildagi 1,2 mlrd so'mdan 2024-yilda 2,6 mlrd so'mgacha ko'tarilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda tahlil va monitoring muhim o'rin tutadi. Har oyning, chorakning yoki yilning oxirida elektron boshqaruv tizimlari orqali moliyaviy faoliyat natijalari tahlil qilinadi. Monitoring orqali quyidagilar aniqlanadi. Mablag'lar qayerga va qancha miqdorda sarflanganligi hamda qolgan yoki ortiqcha sarflangan mablag'lar aniqlanadi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, korrupsiya xavfi kamayadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy oqimni raqamli tarzda boshqarish imkoniyati mavjud. Bunda elektron hisobotlar shakllantiriladi, xarajatlar onlayn tarzda nazorat qilinadi, audit va tahlil avtomatlashtiriladi. Natijada shaffoflik, tezkorlik va inson omilining kamayishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy oqimni boshqarish tizimi samarali va shaffof tashkil etilmas ekan, ushbu muassasalarning barqaror faoliyati kafolatlanmaydi. Shuning uchun MTT rahbarlari va mutasaddilari zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini chuqur egallashi, har bir moliyaviy harakatni aniq rejalashtirib, monitoring qilish tizimini joriy etishi zarur. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini, balki jamoatchilik ishonchini ham oshiradi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari -hisobotlilik va monitoring tizimi. Bu tizimda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida hisobotlilik va monitoring mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Hisobot berish tizimi orqali tashkilot o'z faoliyatining natijalarini aniqlaydi, monitoring esa ularni baholash va takomillashtirish imkonini beradi.

Hisobotlilik bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatida olingan natijalarni muayyan muddatlarda tegishli organlarga yoki jamoatchilikka taqdim etish tizimidir. Bu tizim byudjet mablag'lari, ota-onalar to'lovlari, grant va homiylik mablag'lari bo'yicha ma'lumotlar. Pedagogik hisobotlilik o'quv dasturlari, o'quvchilar qamrovi, darsliklar, metodik materiallar, pedagoglar malakasi. Infratuzilmaviy hisobotlar binolar holati, jihozlanish darajasi, sanitariya va xavfsizlik masalalari.

Hisobotlar odatda choraklik, yillik yoki maxsus topshiriqlar asosida shakllantiriladi. Bundan maqsad resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, pedagogik jarayon sifatini doimiy nazorat qilish, qabul qilingan qarorlar va dasturlar ijrosini tahlil qilish.

Jamoatchilik monitoringi, ichki monitoring va tashqi monitoring turlari mavjud. Ichki monitoring maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati tomonidan olib boriladi. Tashqi monitoring mahalliy hokimiyat, xalq ta'limi boshqarmasi, moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jamoatchilik monitoringi ota-onalar qo'mitasi, nodavlat tashkilotlar yoki ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkaziladi.

Hisobot va monitoring tizimini raqamlashtirishning ahamiyati shundaki so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarda raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilishi natijasida hisobot va monitoring faoliyati samaradorligi oshdi. Xususan elektron hisobot tizimlari, hisobotlar avtomatik tarzda shakllanadi. Onlayn monitoring platformalari real vaqt rejimida ma'lumotlar olinadi va tahlil qilinadi. Mobil ilovalar va veb-portal tizimlari: ota-onalar va jamoatchilik ishtirokini ta'minlaydi. Maqsad inson omilining kamayishi, ma'lumotlar aniqligi, hisobot topshirish muddatlarining qisqarishi, korruptsiya xavfining kamayishidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini monitoring qilishni sifatli tashkil qilish uchun hisobot va monitoring tizimlari bo'yicha yagona elektron platforma

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025


yaratish, pedagog va rahbar kadrlar uchun maxsus o'quv kurslarini yo'lga qo'yish, monitoring natijalarini ochiq e'lon qilish amaliyotini kengaytirish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali shaffoflikni ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda hisobotlilik va monitoring tizimi ularning samarali faoliyat yuritishi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va ta'lim sifatini oshirishning ajralmas qismidir. Ushbu tizimni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va doimiy takomillashtirib borish bugungi kunda dolzarb vazifadir. Bu orqali nafaqat nazorat balki strategik boshqaruv ham kuchayadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning bir necha asosiy modellari mavjud. Davlat byudjeti asosidagi model, bu modelda barcha moliyaviy xarajatlar to'liq davlat tomonidan qoplanadi. Davlat byudjeti asosidagi model barqarorlik va tenglik mustahkamlab beradi. Aralash moliyalashtirish modeli esa

davlat va xususiy sektor moliyaviy yukni bo'lib oladi. Jumladan, ota-onalar to'lovi, homiylik, xalqaro grantlar va boshqa manbalar ham ishtirok etadi. Bu model moslashuvchanlikni oshiradi, ammo tenglik tamoyiliga tahdid solishi mumkin. Kupon (vaucher) modeli davlat har bir bola uchun belgilangan miqdordagi mablag'ni kupon shaklida taqdim etadi va ota-ona uni istalgan ta'lim muassasasida foydalanishi mumkin. Bu raqobatni oshiradi, sifatli xizmatlar rivojlanishiga turtki beradi.

MTTlar moliyaviy oqim manbalari





International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Yuqorida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy oqim manbalari"ni ko'rsatildi. Unda ko'rinib turibdiki:

Davlat byudjeti asosiy manba (50%);

Ota-onalar to'lovi muhim qo'shimcha resurs (30%);

Xususiy homiylik va grantlar esa kichikroq ulushni tashkil qiladi (10% dan).

Moliyalashtirish modellari asosida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari amaliyotda bir qator o'ziga xosliklarga ega. Hududiy farqlar, qishloq joylarda moliyaviy resurslar yetishmasligi, shaharlarda esa xususiy sektor ishtirokining yuqoriligi kuzatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashuvchanlik: Har bir model mamlakatning yoki hududning iqtisodiy imkoniyatlariga qarab shakllantiriladi. Monitoring va baholash tizimining mavjudligi: Mablag'lardan foydalanish samaradorligini ta'minlash uchun audit va hisobot tizimi muhim ahamiyatga ega. Infratuzilma va kadrlar salohiyatining ta'siri: Moliyalashtirish modeli bevosita tashkilotning moddiy-texnik bazasi va pedagogik salohiyatiga bog'liq. O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha ta'limga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hajmi ortmoqda. Xususiy bog'chalar soni ham keskin ko'paymoqda. Bu esa aralash moliyalashtirish modelining amalda keng qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish modeli ularning barqaror faoliyat yuritishi, ta'lim sifati va qulay muhitni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan va zamon talablariga moslashtirilgan moliyalashtirish modeli orqali bu sohada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hisobotlilik va monitoring tizimi samarador ta'lim boshqaruvining ajralmas komponentidir. Mazkur tizim orqali nafaqat tashkilot faoliyatining holati aniq baholanadi, balki mavjud muammolarni aniqlash, resurslarni tahlil qilish va ularni oqilona taqsimlash imkoniyati ham yaratiladi. Ilmiy jihatdan qaralganda, hisobot va monitoring tizimlari tashkilotning ichki nazorat va tashqi baholash mexanizmlari orqali institutsional barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa strategik qarorlar qabul qilish jarayonida ishonchli statistik va tahliliy ma'lumotlar bazasining shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimlarida monitoring mexanizmlari mavjud bo'lmagan hollarda resurslar samarasiz sarflanishi, ta'lim sifati pasayishi va



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

korruption holatlarning yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu sababli, ilmiy-nazariy asoslangan monitoring yondashuvlari (masalan, indikatorlar tizimi, metrik baholash usullari) orqali MTTlarning faoliyatini ob‘ektiv baholash imkoniyati vujudga keladi.

Shuningdek, bugungi raqamlashtirish jarayoni hisobot va monitoringni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Elektron boshqaruv tizimlari masalan, ERP Enterprise Resource Planning yoki MIS Management Information Systems asosida ishlovchi maktabgacha ta‘lim muassasalari resurslar harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish, hisobotlarni avtomatlashtirish va faoliyat natijalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanganidek, shaffoflik va javobgarlik barqaror ta‘lim tizimi poydevoridir. Hisobot va monitoring tizimi aynan ushbu tamoyillarni ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida bu borada tub islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq, maktabgacha ta‘lim sohasida shaffof hisobot tizimi va raqamli monitoring mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Bu esa ta‘lim sifatini nazorat qilish va barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, hisobotlilik va monitoring tizimini takomillashtirish nafaqat tashkiliy-texnik masala, balki ilmiy asoslangan strategik boshqaruvning bir qismidir. U orqali maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ochiqligi, samaradorligi va jamoatchilik oldidagi mas‘uliyati kuchayadi. Bu esa oxir-oqibatda bolalar ta‘lim-tarbiyasining sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida hisobotlilik va monitoring tizimi samarador ta‘lim boshqaruvining ajralmas komponentidir. Mazkur tizim orqali nafaqat tashkilot faoliyatining holati aniq baholanadi, balki mavjud muammolarni aniqlash, resurslarni tahlil qilish va ularni oqilona taqsimlash imkoniyati ham yaratiladi. Ilmiy jihatdan qaralganda, hisobot va monitoring tizimlari tashkilotning ichki nazorat va tashqi baholash mexanizmlari orqali institutsional barqarorlikni ta‘minlaydi. Bu esa strategik qarorlar qabul qilish



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

jarayonida ishonchli statistik va tahliliy ma'lumotlar bazasining shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimlarida monitoring mexanizmlari mavjud bo'lmagan hollarda resurslar samarasiz sarflanishi, ta'lim sifati pasayishi va korrupsion holatlarning yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli, ilmiy-nazariy asoslangan monitoring yondashuvlari masalan, indikatorlar tizimi, metrik baholash usullari orqali MTTlarning faoliyatini ob'ektiv baholash imkoniyati vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori, 2019-yil 19-mart, "Maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida".
2. "O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan strategiya", Vazirlar Mahkamasi qarori, 2019-yil.
3. Жыпаев, А., & Эргашева, Г. (2021). Ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik asoslari. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
4. World Bank. (2021). Financing Early Childhood Education: Country Profiles and Approaches. Washington, DC.
5. UNESCO. (2020). Early Childhood Care and Education Financing in Central Asia. Paris.
6. Abdullaeva, M. (2022). "Maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar", Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №2(45), 56-63.
7. OECD. (2019). Providing Quality Early Childhood Education and Care: Results from the Starting Strong Survey 2018.
8. Xolmurodov, B. (2023). Ta'limda moliyaviy menejment. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy axborotlari – <https://www.mpe.uz>
10. Statistika agentligi ma'lumotlari – <https://stat.uz>